

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53402-4.02

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**INNOVATsION MENEJMENT
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340200 - "Menejment"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Sobirjonova D.,
k.o'q. Sulaymonov B.

Taqrizchilar: prof. Zaynutdinov Sh.,
dots. Ibragimov P.

Mazkur o'quv dasturi iqtisodiy yo'nalishlardagi Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Iqtisodiyot sohasining ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yurituvchi bakalavrlar menejment masalalari yaxshi tushuna olishlari kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyatning barcha sohalarida menejmentga alohida ahamiyat berilmoqda. Ushbu o'quv dasturi mavzularida innovatsion menejmentning tegishli nazariy masalalar ko'rib chiqilgan.

Mazkur o'quv dasturidagi mavzular talabalarga innovatsion menejment bilan bog'liq masalalarni hal etishda asosiy nazariy yo'nalishlarni o'zlashtirib olishlari uchun yordam beradi.

Данная учебная программа предназначена для студентов экономических вузов.

Специалисты работающие на производственных предприятиях в экономической сфере должны хорошо ориентироваться в вопросах менеджмента.

В настоящее время в условиях рыночной экономики менеджменту уделяется большое значение во всех сферах деятельности. В темах данного курса рассмотрены теоритические вопросы, касающиеся инновационного менеджмента.

Данный курс лекции, предусмотренный программой поможет студентам освоить основные теоритические аспекты необходимые для решения проблем связанных с инновационном менеджментом.

The experts working on manufacture and enterprises in economic sphere should well be guided in questions of management.

Now in conditions of market economy the large value in all spheres of activity is given to management. In subjects of the given rate the theoretical questions concerning management are considered.

The given rate of lectures stipulated by the program will help the students to master the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected with management.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida

muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'quv fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tish davrida jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv masalalarini chuqur o'rganishga asoslangan yangi sharoitlar yuzaga kelmoqda.

Bozor iqtisodiyoti rahbarlar va mutaxassislariga jiddiy talablar qo'yadi. Bu tashkilotlarni rivojlantirishning samarali strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish zaruriyati bilan bog'liq. Bunday muammolarni faqatgina boshqaruv munosabatlarini tushunuvchi mutaxassislariga hal qilishadi.

"Innovatsion menejment" kursining maqsadi bo'lajak xo'jalik rahbarlarini va boshqaruv mutaxassislarida tashkilotlarni boshqarishdagi funktsiyalashtirishning barcha jabhalarida boshqaruvning chuqur ilmini shakllantirishdan iborat.

Bu kurs bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi sharoitida mutaxassislarni tayyorlashning asosini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqadi.

"Innovatsion menejment" fani boshqaruvchi - mutaxassislar bilimini shakllantiruvchi bazaviy fanlardan biri hisoblansada, umumiqtisodiy, maxsus va boshqa fanlar bilan ham mustahkam bog'langan.

Ushbu fan dasturining maqsadi bakalavr yo'nalishidagi talabalarga tashkilotlar faoliyatida innovatsion menejmentning nazariy va amaliy xarakterdagi asosiy holatlaridan foydalanish bilimini berishdir.

O'rganilayotgan fan predmeti innovatsion menejment va uning unsurlaridan tashkil topgan. Innovatsion menejmentda innovatsiyalarni boshqarishning ilmiy asoslari, shuningdek tashkilot xodimlarini boshqarish, o'quv-tarbiya jarayoni va iqtisodiyotini boshqarish masalalari yoritilgan.

O'rganilayotgan fan "Menejment", "Iqtisodiy nazariya", "Marketing", "Iqtisodiy bilim tarixi", "Mikroiqtisodiyot", "Tadbirkorlik asoslari" fanlarini nazariy o'rganish natijasida yaratilgan.

"Innovatsion menejment"da o'rganilayotgan, ko'pgina masalalar yuqorida qayd etilgan fanlarda olingan bilimlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Talabalar fanni o'rganish jarayonida dasturga kiritilgan har bir mavzu bo'yicha bilimiga ega bo'lishlari va o'z bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda ko'rsatib, baholanib

borishlari zarur. O'quv jarayonida nazorat ishlarini bajarishlari, mustaqil ta'lim mavzularini o'qituvchi yordamida o'rganishlari, mustaqil ish sifatida referatlar tayyorlashlari, fanga oid chizmalar va jadvallar tayyorlab kelishlari hamda tegishli tartibda oraliq, joriy va yakuniy baholashda reyting ballarini to'plashlari kerak.

Seminar mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar

Seminar mashg'ulot mavzulari namunaviy dastur asosida belgilanib, har bir mavzuga kiritilgan savollar va tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati bilan birga alohida uslubiy qo'llanma shaklida ko'paytiriladi. Seminar mavzusi rejasidagi savollar dastur doirasida tuzilib, ma'ruzada bayon qilinadigan masalalar bilan mazmunan bir xil bo'lsada, shaklan ularni takrorlamaydi.

Auditoriya mashg'uloti turlarning soatlar hajmi

Oliy ta'limning Davlat standartlarida "Innovatsion menejment" fani bakalavr yo'nalishdagi III-IV kurs talabalari uchun 162, shu jumladan 54-ma'ruza, 54-seminar (amaliy) mashg'ulot va 54- mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash reyting tizimi asosida amalga oshiriladi. O'quv rejasida fanga ajratilgan soat yuklamasidan kelib chiqib, aniqlanadigan reyting ballari 108 ball bo'lib, u nazoratning alohida turlariga quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- joriy baholashga seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soat yuklamasini 70 foizi (37,8 ball);
- oraliq baholashga ma'ruza darslariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (37,8 ball);
- yakuniy baholashga umumiy o'quv soatlar yuklamasining 30 foizi (32,4 ball).

Joriy baholash uchun ajratiladigan reyting ballari talabalarning seminar darslaridagi faolligi, ilmiy referat tayyorlaganligi va boshqa rejalashtirilgan ishlarni (mustaqil ish bajarish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash va h.k.) bajarganligi uchun qo'yiladi.

Oraliq baholashda talabalarning ma'ruza darslaridagi faolligi hisobga olinadi, hamda ikki marta oraliq nazorat (yozma ish, test yoki nazoratning boshqa turi) o'tkazilib, ularga tegishli ball ajratiladi.

Yakuniy baholash ballari talabalarning tayanch so'z va iboralari bo'yicha bajargan yozma ishi uchun qo'yiladi.

Kompyuter, axborot va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

"Innovatsion menejment" kursini o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. quyidagilardan iborat:

- fanni mazmunini ko'rsatuvchi ko'rgazmali albomlardan foydalanish;
- ma'ruza matnidagi shakliy va raqamli ma'lumotlarni oldindan tayyorlab, talabalarga tarqatish. Bu usul o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi;
- test savollarini tuzish va ulardan talabalar bilimini sinashda foydalanish;
- "tayanch" iboralarni ishlab chiqib, ularning talabalar tomonidan mukammal o'zlashtirilishini ta'minlash;
- ayrim mavzular bo'yicha ma'ruzalarni O'zbekiston Respublikasi boshqaruv organlarida faoliyat yuritayotgan etakchi xodimlar tomonidan o'tilishini ta'minlash;
- masofaviy o'qitishni tashkil etish, kompyuterda bajariladigan dasturlardan foydalanish;
- xorijiy universitetlar professorlari tomonidan o'qilgan ayrim ma'ruzalarni texnika vositalari orqali talabalarga namoyish etish va boshqalar.

INTERNET tarmog'ida mavjud bo'lgan fanga taalluqli saytlar ro'yxati:

1. <http://www.cer.uz>
2. <http://www.referat.ru>
3. <http://www.plekhanov.ru>
4. <http://www.litera.ru>

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

"Innovatsion menejment" fani kunduzgi bo'lim "Menejment" (sohalar bo'yicha) yo'nalishi 2-kursida o'quv yilining I yarim yilligida o'qitilib, oraliq, joriy baholashlar (nazorat) orqali baholanib, yakuniy nazorat bilan tugallanadi.

Talaba ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'z bilimlarini chuqurlashtiradilar. Ularning olgan bilim va ko'nikmalari yuqori kurslarda o'tiladigan boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun ham asos bo'ladi hamda bu bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi.

Fanni o'rgatishda quyidagilarga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning asarlari va ma'ruzalarida iqtisodiy munosabatlar, jumladan bozor faoliyatiga oid fikrlar, ko'rsatmalarni tegishli mavzularda ishlatish;
- Har bir mavzu bo'yicha jadvallar, chizmalar tayyorlab, ulardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish.

2. FAN DASTURI

Innovatsion menejmentning asosiy tushunchalari va qonuniyatlari

Innovatsion menejmentning mohiyati. Innovatsion yo'nalishi. Innovatsion menejment va ijtimoiy munosabatlarni tarkiblashtirish. Innovatsion menejment bosqichlari. Funktsiyali innovatsion menejment. Innovatsion faoliyat boshqaruv ob'ekti sifatida. Innovatsion tizimning evolyutsiyasi. Innovatsiya va innovatsion jarayonlar klassifikatsiyasi. Innovatsiyaning maqsadi va turlari. Innovatsion tsikllar.

Innovatsion menejment metodologiyasi

Innovatsion menejmentga ilmiy yondashuvlar. Boshqaruv fani evolyutsiyasining asosiy bosqichlari. Innovatsion menejment kontseptsiyalari va yondashuvlari klassifikatsiyasi. Klassik (mumtoz), xulqiy va ilmiy maktab. Jarayonli, tizimli, ijtimoiy-ruhiy yondashuv. Innovatsion menejmentda tizimli yondashuv. Innovatsion menejment tizimiga kirish va chiqish parametrlari. Innovatsion menejment tizimida kommunikatsion aloqa turlari. Innovatsion faoliyatni tashkil etish tartibi tamoyillari ochiq tizim sifatida. Yangilikni hayotiy tsikl kontseptsiyasini mohiyati. Tashkilotning hayotiy tsikli.

Innovatsion menejment usullari va funktsiyalari

Innovatsion menejment usullari va funktsiyalari xususiyatlari. Innovatsion taraqqiyotning e'tiborli jihatlarini. Innovatsion faoliyat boshqaruv funktsiyasi tizimi. Innovatsion menejmentning nazorat turlari. Innovatsion menejment funktsiyalari va maqsadlari. Innovatsion menejment maqsadlari umumiy klassifikatsiyasi. Innovatsion faoliyatni tashkil etish va rejalashtirish. Innovatsion menejmentda rejalashtirish jarayoni. Innovatsion menejmentda kommunikatsiya jarayoni. Motivatsiyani boshqarish. Motivatsiyaning protsessual modeli. Innovatsion menejmentda qaror qabul qilish. Boshqaruv qarorlarini tizimlashtirish. Innovatsion menejmentda "maqsadlar shajarasi".

Innovatsion faoliyatning yangi tashkiliy shakllari

Innovatsiyani tashkil etish tushunchasi. Ilmiy texnik va innovatsion sohalar tashkil etishni klassifikatsiyasi. Innovatsion taraqqiyotning tashkiliy shakllari. Zamonaviy innovatsion firma. Kelajakdagi innovatsion tashkilotlarning o'ziga xos xususiyatlari.

Innovatsion tashkilotlarning evolyutsiyasi. Innovatsion menejmentda integratsiya va diversifikatsiya jarayonlari. Diversifikatsiyaning strategiya variantlari. Innovatsion faoliyatni tashkillashtirishning yangi shakllari. Sanoat korxonalarini assotsiatsiyasi "Engil metatuzilmasi". Strategik alyansi.

Texnokrat strukturasi. Texnopark strukturasi. Konsortsiyalar. Moliya-sanoat guruhi.

Innovatsion menejment bosqichlari

Innovatsion boshqaruv faoliyati xususiyatlari. Strategik piramidalar. Innovatsion faoliyat boshqaruv ob'ekti sifatida. Innovatsion faoliyatda funktsional boshqaruvning roli. Bazaviy funktsional strategiya. Funktsional strategiyalarning kelishuvi. Strategiya piramidasi tashkil etishda strategiya va maqsadlarning o'zaro aloqalari. Funktsional tizim osti innovatsion tashkilotlar. Innovatsion boshqaruvning strategik bosqichlari. Innovatsion strategiya tanlovi va realizatsiyasi. Innovatsion strategiya tanlovi matritsasi. Innovatsion menejment strategik tizimi. Tashkilot tashqi muhitining vaziyatli tahlili. Innovatsion boshqaruvning operativ bosqichi. Tezkor (operativ) boshqaruv tizimi. Innovatsion faoliyat xarajatlari.

Yangilikni ishlash, o'zlashtirish va tashkil etishni boshqarish

HIOKP ni boshqarish. HIOKP tashkiliy tizimini qayta qurish zaruriyati. Innovatsion tsikl bosqichlarida HIOKP xarajatlari tuzilmasi. Yangiliklar texnik darajasini baholashdagi ko'rsatkichlar klassifikatsiyasi. Yangiliklar texnik darajasining integral ko'rsatkichi. Yangilikni joriy qilishni o'zlashtirish va tashkil etishni boshqarish. Yangi mahsulotni ishlab chiqarishga o'tish metodlari. Texnologik qarorni tanlash sxemasi. Ishlab chiqarishning tashkiliy omillari.

Innovatsion marketing

Innovatsion marketing turlari. Strategik innovatsion marketing. Iqtisodiy kon'yuktura. Yangi mahsulotni qabul qilish jarayoni. Bozorni tadqiq etish tizimi. Yangi tovarlarni qabul qilishda innovatsiya iste'molchilarini kategoriyalari klassifikatsiyasi. Tezkor marketingda vaziyatli tahlilning roli. Tezkor innovatsion marketing bosqichlari. Innovatsiyani pozitsiyalashtirish jarayoni. Yangi tovarni tarqatishni boshqarish metodlari. Tezkor marketing va marketing xizmatlari funktsiyalari. Innovatsion marketingda variantli tahlil.

Innovatsion siyosat

Davlat innovatsion siyosatini mohiyati yo'nalishlari va maqsadi. Davlat innovatsion siyosatini tadqiq etish metodlari. Innovatsion doirada institutsional va me'yoriy-qonuniy talablarni ijobiy o'zgarishlarini shakllantirish. Davlat innovatsion siyosatini joriy qilish

shartlari. Innovatsiyaga sarflanayotgan byudjet vositalarini samaradorligini oshirish tadbirlari. Innovatsion jarayon faollashtirish.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning innovatsion siyosati

Innovatsion loyiha. Xo'jalik yurituvchi sub'ektni innovatsion siyosatini ishlash. Imitatsiya. Monte-karlo metodi. Delfi metodi. Innovatsion bozor. Innovatsion bozorning tuzilmaviy chizmasi. Innovatsion yondashuv. Innovatsion tavakkal. Tavakkalchilik iqtisodiy kategoriya sifatida. Moliyaviy tavakkalchilik umumiy tizimida innovatsion tavakkalchilikning o'rni. Innovatsiyaga kapital qo'yilmani optimal variantini tanlash. Innovatsion tavakkalchilik koeffitsienti tasnifi.

Innovatsion jarayon

Innovatsion jarayon tuzilmasi va mazmuni. Innovatsiya -innovatsion jarayonning boshlang'ich bosqichi. G'oyaning texnik-iqtisodiy asoslanganligi. Innovatsion g'oyalarni ishlash metodlari. Sinov va xatolar metodi. Aqlga xujum metodi. Morfologik tahlil. Sinektika. Etti martalik qidiruv strategiyasi. Kashfiyotchilik vazifalari echimi nazariyasi metodi. Siljish va diffuziya innovatsion jarayonning oxirgi bosqichi. Innovatsiyaning sotish bo'yicha asosiy uch metod. Innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligi.

Innovatsion menejment yondashuvi

Innovatsion menejmentda yondashuvlarning mohiyati va mazmuni. Innovatsion menejment yondashuvlarining guruhlari. Innovatsion menejment yondashuvlarining sxematik klassifikatsiyasi. Boshqaruvning marketing usuli. Innovatsion marketingning kontseptsiyasi. Innovatsiyada xaridorlar talabining klassifikatsiyasi. Innovatsion marketing jarayoni. Innovatsiya injiniringi. Innovatsiya injiniringini o'ziga xos xususiyatlari. Innovatsion reinjiniringi. Innovatsion biznes jarayoni. Beichmarketing. Innovatsion brand-strategiyasi. Boshqaruvning baho usuli. Innovatsion boshqaruvning baho usulining tuzilmasi. Innovatsion narx. Merjer. Merjer shakllari. Merjer protsedurasi.

Raqobatchilik afzalliklarini shakllantirish

Raqobatchilik afzalliklarini turlari. Raqobatchilikda innovatsion menejmentning funktsiyasi. Raqobatchilik ustunliklarini shakllantirish strategiyasini ishlash. Boshqaruv jarayonida raqobatchilik ustunliklarini tashkil etishning xususiyatlari. Ishlab chiqarishning innovatsion rivojlantirish strategiyasini shakllantirishda strategik variantlar tahlil metodlari. Innovatsion faoliyatning ishlab chiqarish texnik tashkiliy darajasini boshqarish.

Xodimlarni innovatsion boshqaruv

Tashkilotlarda xodimlarni innovatsion boshqarishning xususiyatlari. Mehnat resurslarini boshqarishning bosqichlari. Innovatsion jamoalarda personal (xodim)ni baholash mezonlari. Innovatsion jamoalarda nizolarning roli. Kontsensushga erishish jarayoni mexanizmi. Innovatsion jamoalarda kommunikatsiya.

Innovatsiyani prognozlash epistemologiyasi

Epistemologiya innovatsiyani prognozlashni bilish nazariyasi sifatida. Uning mohiyati va mazmuni. Innovatsiyani motivlashtirish. Motivatsiya jarayoni innovatsiyani tashkil etish va sotish sifatida. Innovatsiyaning hayotiy tsikllari. Innovatsiya hayotiy tsikl kontseptsiyasining ahamiyati. Innovatsiyani prognozlash metodlari. Ekstropolyatsiya. Qidiruv prognozi. Me'yoriy prognoz. Tendentsiyani tahlili asosida prognozlash. Intuitiv prognoz.

Moliyaviy innovatsiyaning sinfi

Moliyaviy innovatsiya mohiyati va mazmuni. O'zaro bog'liq uch tizim osti oqlovchanligi. Moliyaviy innovatsiyaning iqtisodiy kategoriya sifatida ajralib turuvchi xususiyatlari. Moliyaviy innovatsiya bozor tovari sifatida. O'zbekiston Moliya bozorining innovatsion tasnifi.

Internet - XXI asr innovatsion mobili

Elektron savdo. Internet tarmog'i (seti) rivoji. Elektron to'lovlarning o'ziga xos shakllari. Raqamli pullar. Tranzaktsiya. Elektron pullar mobil savdosi. Mobil savdo-sotig'i va uni joriy qilish. Mobil telefon yordamida xarid qiymatini to'lash shakllari.

Samarali innovatsion dasturni tanlash

Innovatsion dasturlarda investitsiyalarni asoslash. Investitsiya qo'yish yo'nalishlarini aniqlash. Innovatsion qarorlar variantlarini baholash. Yangiliklar dasturini tahlil qilishda asosiy omillar. Innovatsion dasturlarning bines rejasi. Biznes reja tarkibi. Reja bo'limlari. Innovatsion dasturlarni biznes rejalashtirish bosqichlarida ekspertizatsiyasi. Project Expert asosida innovatsion dasturni moliyaviy modellashtirish. Project Expert funksional imkoniyatlari va tuzilmasi.

Innovatsion loyiha va uning samaradorligini baholash metodlari

Innovatsion loyiha-innovatsiyani tashkil etishning yangi shakli. Innovatsion loyiha tuzilmasi. Innovatsion loyihalar klassifikatsiyasi. Innovatsion loyihalarni qayta ishlash fazalari. Innovatsion faoliyatni loyihali boshqarish. Me'yoriy (kriteriy) ko'p maqsadli yondashuvlar. Innovatsion loyihalarni tahlil etish tamoyillari. Innovatsion loyihalarni samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari. Loyiha samaradorligini baholash metodlari.

Daromad indeksi metodi (PI). Sof joriy qiymat metodi (NPV). Ichki me'yoriy foyda metodi (IRR).

3. SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZUSI

Innovatsion menejmentning asosiy tushunchalari va qonuniyatlari

Innovatsion menejment tushunchasining mazmuni. Innovatsion menejment tizim sifatida. Innovatsion menejmentning vazifalari. Funktsional innovatsion menejment. Strategik innovatsion menejment tushunchasi. Innovatsion faoliyatni tezkor boshqarish vazifalari. Novatorlik firmalarda menejmentning o'ziga xos xususiyatlari. Innovatsion faoliyatning iqtisodiy taraqqiyotdagi roli. "Innovatsiya" tushunchasining mazmuni. Innovatsiya maqsadlari. Innovatsion tsikl bosqichlari.

Innovatsion menejment metodologiyasi

Boshqaruv fani evolyutsiyasining asosiy tasnifi. Innovatsion menejment kontseptsiyalari va yondashuvlari. Innovatsion menejmentning xarakterli jihatlari. Innovatsion menejmentda tizimli yondashuv. Innovatsion menejment tizimiga kirish va chiqish parametrlari. Innovatsion menejment ochiq tizim sifatida. Yangilik (novshest) tamoyillari. Innovatsion menejment murakkab tizim sifatida tarkibi va tuzilmasi. Yangilik kontseptsiyasining hayotiylik tsikli.

Innovatsion menejment usullari va funktsiyalari

Ishlab chiqarish faoliyatining innovatsion yo'nalishi. Innovatsion taraqqiyotning ahamiyatli jihatlari. Innovatsion menejmentda kommunikatsiya, motivatsiya, muvofiqlashtirish funktsiyalarining ahamiyati. Innovatsion menejmentda foydalaniladigan nazorat turlari. Innovatsion faoliyatning tashqi maqsadlari. Innovatsion menejment maqsadlari umumiy klassifikatsiyasi. Innovatsion menejmentda rejalashtirish jarayoni. Innovatsion faoliyatning boshqaruv funktsiyasi sifatida vazifalari. Innovatsion menejmentda qarorlar qabul qilish tizimi.

Innovatsion faoliyatning tashkil qilish

Innovatsiyani tashkillashtirish tushunchasi. Tashkillashtirish sub'ekt va innovatsion faoliyat sifatida. Tashkilotning innovatsion faoliyat doirasi. Innovatsiyaning hayotiy tsikl bosqichlari bilan tashkilot turlari aloqasi. Tashkilotlarning ilmiy-texnik va innovatsion doiradagi klassifikatsiyasi. Innovatsion faoliyatning korxonaga bog'liqligi. Innovatsion tashkilotlar xususiyatlari. Innovatsion firmalar evolyutsiyasida integratsiya va diversifikatsiyaning roli. Innovatsion faoliyatda moliya-sanoat guruhlarining roli. Innovatsion faoliyatning vertikal va gorizontal integrallashgan tuzilmadagi xususiyatlari.

Innovatsion menejment bosqichlari

Innovatsion menejmentda jarayonli yondashuv zaruriyati. Innovatsion menejmentni tashkil qiluvchi uch qismi. Innovatsion jarayonlari parametrlari. Korxonalar innovatsion faoliyatining motivlari. Korxonalar innovatsion strategiyasi. Innovatsion tashkilotning tizim osti bosh funktsiyasi. Innovatsion boshqaruvning strategik bosqich vazifalari. Innovatsion strategiyani tanlashdagi matrik tahlil. Innovatsion strategiya. Innovatsion boshqaruvning tezkor bosqichi. Innovatsion faoliyatda harajatlar turlari.

Yangilikni ishlash, o'zlashtirish va tashkil etishni boshqarish

Yangilikni ishlash, o'zlashtirish, tashkil etishda menejning vazifasi. HIOKP ni rivojlantirishni boshqarishning xususiyati. Yangilik texnik darajasini baholash ko'rsatkichlari. Yangilikni joriy qilishni o'zlashtirish va tashkil etishni boshqarish. Texnologik qarorni tanlash sxemasi. Ishlab chiqarishning tashkiliy omillari.

Innovatsion marketing

Strategik innovatsion marketing tushunchasi. Yangi mahsulotni qabul qilish jarayoni. Bozorni tadqiq etish tizimi. Yangi tovarni qabul qilishda innovatsion iste'molchilari kategoriyalari tasnifi. Tezkor innovatsion marketing bosqichlari. Innovatsiyani pozitsiyalashtirish jarayoni. Yangi tovarni tarqatishni boshqarish metodlari. Tezkor marketing va marketing xizmatlari funktsiyalari. Innovatsion marketingda variantli tahlil.

Innovatsion siyosat

Davlat innovatsion siyosati maqsadi va uni tadqiq etish metodlari. Innovatsion siyosatni joriy etish shartlari. Innovatsiyaga sarflanayotgan byudjet vositalari samaradorligini oshirish tadbirlari. Innovatsion jarayonni faollashtirish.

Xo'jalik yurituvchilarning innovatsion siyosati

Innovatsion loyiha. Xo'jalik yurituvchi sub'ektni innovatsion siyosatini ishlash. Imitatsiya. Innovatsion siyosat metodlari. Innovatsion bozor. Innovatsion yondashuv. Innovatsion tavakkalchilik. Moliyaviy tavakkalchilik umumiy tizimida innovatsion tavakkalchilikning o'rni. Innovatsiyaga kapitalni joriy qilishni optimal variantini tanlash. Innovatsion tavakkalchilik koeffitsienti tasnifi.

Innovatsion jarayon

Innovatsion jarayonning asosiy tushunchalari va tayanch iboralari. Boshlang'ich bosqichi. G'oyaning texnik-iqtisodiy asoslanganligi. Innovatsion g'oyalarni ishlash metodlari. Yangi g'oyalarni shakllantirish yo'llari. Etti martalik qidiruv strategiyasi.

Innovatsion jarayonning oxirgi bosqichi. Innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligini o'lchash usullari.

Innovatsion menejmentning usullari

Innovatsion menejmentning usullari mohiyati va mazmuni. Innovatsion menejment usullari guruhi. Innovatsion menejment usullarining klassifikatsiyasi. Boshqaruvning marketing usuli. Innovatsiya marketingi kontseptsiyasi. Innovatsiyaga xaridorlar talabining klassifikatsiyasi. Innovatsion marketing jarayoni. Innovatsiya injiniringi. Innovatsion reinjiringi. Innovatsiya biznes jarayoni. Bengmarketing. Innovatsion boshqaruvning baho usulining tuzilmasi. Innovatsion narx Merjer.

Raqobatchilik afzalliklarini shakllantirish

Raqobat ustunligi (M.Porter bo'yicha). Raqobatchilik ustunligini shakllantirish. Innovatsion menejmentning raqobatchilik ustunligini shakllantirishdagi funktsiyasi. Raqobat ustunligini yoyishning ideal modeli. Raqobatchilik ustunligi strategiyasi. Bozor sharoitida raqobatchilik ustunligini oshirishdagi menejmentning harakati. Raqobatchilik ustunligini yaratish va saqlab turishni boshqarish jarayoni. Raqobatchilik ustunligining hayotiy tsikli. Raqobatchilik ustunligi strategiyasi. SWOT-tahlil mohiyati.

Xodimlarni innovatsion boshqaruv

Xodimlarni boshqarish iborasi tushunchasi. Xodimlarni innovatsion boshqaruvning yuzaga kelishi. Innovatsion menejmentda xodimlarni rejalashtirish va saralash. Innovatsion faoliyatda xodimlarni baholash mezonlari. Shaxslarni o'rganish mezonlari. Innovatsion kollektivda kommunikatsiya. Innovatsion kollektivda ijtimoiy boshqaruvga moslashish. Innovatsion menejmentda nizolar.

Innovatsiyaning prognoz turlari

Epistemologiya innovatsiyani prognozlashning tushunchalari va tayanch iboralari. Uning mohiyati va mazmuni. Innovatsiyani motivatsiyalash. Motivatsiya jarayoni innovatsiyani tashkil etish va sotish sifatida. Innovatsiyaning hayotiy tsikl kontseptsiyasi ahamiyati. Innovatsiyani prognozlash metodlari. Ekstropolyatsiya. Qidiruv prognozi. Me'yoriy prognoz. Intuitiv prognoz.

Moliyaviy - innovatsiyalarning mohiyati

Moliyaviy innovatsiyaning tushunchalari. Moliyaviy innovatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ko'rsatkichlari. Moliyaviy innovatsiya bozor tovari sifatida. O'zbekiston moliya bozorining innovatsion tasnifi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi. Innovatsiyani moliyalashtirish manbalari va shakllari.

Internet va innovatsiyalarining o'zaro bog'liqligi

Internet tarmoqlarining tarkibi Internet tarmog'ining rivojlanish ko'rsatkichlari. Elektron to'lovlarning shakllari. Elektron savdo. Raqamli pullar. Tranzaktsiya. Elektron pullar. Mobil savdosi. Mobil savdoni o'zlashtirish. Mobil telefon yordamida xarid qiymatini to'lash shakllari.

Samarali innovatsion dasturning ahamiyati

Innovatsiya dasturning tushunchalari. Dasturning o'rni va tarkibi Innovatsion dasturlarda yangiliklarni asoslash. Investitsiyalarning yo'nalishlarini aniqlash. Innovatsion qarorlar tushunchasi va ularning variantlarini baholash. Yangiliklarning asosiy mezonlari. Innovatsion dastur biznes rejaning o'rni. Biznes reja tarkibi. Innovatsion dasturlarning ekspertizasi. Project Expert asosida innovatsion dasturni moliyaviy modellashtirish. Project Expert funktsional imkoniyatlari va tuzilmasi.

Innovatsion loyiha va uning samaradorligini baholash metodlari

Innovatsion loyiha. Innovatsion loyiha tuzilmasi. Innovatsion loyiha turlari. Innovatsion loyiha fazalarini ishlash. Samarasiz innovatsion loyihalarning sabablari. Muvoffaqiyatli innovatsion loyihalar mezonlari. Innovatsion faoliyatni loyihali boshqarish zaruriyati. Loyihalarni boshqarishda menejerning vazifalari. Yangilik rentabelligining moliyaviy me'yorlari. Innovatsion loyihalar samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari. Yangiliklarni tizimli tahlili. Loyihalar samaradorligini baholash metodlari.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA NAMOIYISH MATERIALLARI RO'YXATI

"Innovatsion menejment" fani bo'yicha ko'rgazmali amaliy o'quv materiallari

- Innovatsion menejment bosqichlari.
- Innovatsiya va innovatsion jarayonlar klassifikatsiyasi.
- Innovatsion menejmentda "Maqsadlar shajrasi".
- Innovatsion taraqqiyotning tashkiliy shakllari.
- Innovatsion menejment bosqichlari.
- Innovatsion marketing turlari.
- Yangi mahsulot qabul qilish jarayoni.
- Tezkor innovatsion marketing.
- Innovatsion jarayon.

Slaydlar ro'yxati

- Innovatsion tsikllar.
- Innovatsion menejment usullari.
- Strategik piramidalar.
- Yangiliklar texnik darajasining integral ko'rsatkichi.
- Innovatsion loyiha.
- Innovatsion jarayon tuzilmasi.
- Innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligi.
- Innovatsion dastur.

Axborot manbalari ro'yxati

- Yillik statistik ma'lumotlar.
- Korxonalar (firma) hisoblari.
- Tadbirkorlar uyushmasi axborotlari.
- Birja axborotlari.
- Bank axborotlari.
- Televidenie, radio yangiliklari.
- Aktsiya kurslari jadvallari.
- Voqealar sharhi.

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

"Menejment" fanidan nazorat qilish turlari quyidagicha

1. Fan uchun belgilangan maksimal ball - 108;
2. Fan uchun saralash bali - 59,4. Shu jumladan:
 - joriy baholash - 37,8 ball;
 - oraliq baholash - 37,8 ball;
 - yakuniy baholash - 32,4 ball.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: O'zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. - T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Yangilikka intilib yashash – taraqqiyot garovi. T. 5. - T.: O'zbekiston, 1997.

4. Abdulov A.N., Kulkin A.M. Vlast, nauka, obshchestvo. -M., 1999.
5. Avtonomov V.S. Model cheloveka v ekonomicheskoy nauke. SPb.: Ekonomicheskaya shkola, 1998.
6. Ansoff I. Strategicheskoe upravlenie. -M.: Ekonomika, 1999.
7. Berens V., Xavranek P.M. Rukovodstvo po otsenke effektivnosti investitsiy. - M.: INFRA-M, 1995.
8. Bleyk R., Mouton D. Nauchnie metodi upravleniya / Per. Sangl. M.: YuNITI, 1997.
9. Valdaytsev S. V. Otsenka biznesa i innovatsiy. M.: YuNITI, 1997.
10. Glazev S.Yu., Lvov D. S., Fetisov G.G. Evolyutsiya texniko-ekonomicheskix sistem: vozmojnosti i granitsi tsentralizovannogo regulirovaniya. - M.: Nauka, 1998.
11. Innovatsionniy menedjment: Spravochnoe posobie / Pod red. P.N.Zavlina, A.E.Kazantseva, L.E.Mindeli. - SPb.: Nauka, 1997.
12. Innovatsionniy menedjment: Osnovi teorii i praktiki: Ucheb. pos. / Pod red. P.N.Zavlina, A.E.Kazantseva, L.E.Mindeli. - M.: Ekonomika, 2000.
13. Kirsanov K., Stsveren D. Innovatsionniy menedjment v formirovanii nauchno-texnicheskoy politiki // REJ. 1995y. № 2.
14. Kruglova N.Yu. Innovatsionniy menedjment / Pod red. D.S.Lvova. - M.: Stupen, 1996.
15. Lipsits I.V., Kosov V.V. Investitsionniy proekt. -M.: BEK, 1996.
16. Melkumov Ya.S. Teoricheskoe i prakticheskoe posobie po finansovim vichisleniyam. - M.: INFRA-M, 1996.
17. Menedjment organizatsii / Pod red. Z.P.Rumyantsevoy i N.A.Salomatina. - M.: INFRA-M, 1995.
18. Mekson M.X., Albert M., Xedouri F. Osnovi menedjmenta. - M.: Delo, 1997.
19. Milner B.Z. Teoriya organizatsii. M.: INFRA-M, 1999.
20. Nort D. Instituti i instituttsionalnaya ekonomika. -M.: Ekonomika, 1998.
21. Ogoleva L.N. Innovatsionniy deyatelnost kak ob'ekt proektnogo finansirovaniya: Ucheb. pos. - M.: FA, 1995.
22. Ogoleva L.N., Radikovskiy V.M. Innovatsionnaya deyatelnost predpriyatiya: Ucheb. pos. - M.: FA, 1997.
23. Ogoleva L.N. Innovatsionnaya sostavlyayushchaya ekonomicheskogo rosta. - M.: FA, 1996.
24. Gerchikova I.N. Menedjment: Uchebnik. 2-e izd. - M.: Banki i birji, YuNITI, 1995.
25. Pipers T., Uoterman R.V. V poiskax effektivnogo upravleniya. - M.: Progress, 1996.
26. Porshnev A.G. Upravlenie innovatsiyami v usloviyax perexoda k rinku. -M., 1998.
27. Ryuttinnger R. Kultura predprinimatelstva. - M.: Ekonomika, 1998.

1. Smirnov A.V. Organizatsiya finansirovaniya investitsionnix proektov. - M.: AO "Konsalt-bankir", 1993.
2. Tviss B. Upravlenie nauchno-texnicheskimi novvedeniyami / Per. s angl. - M.: Ekonomika, 1999.
3. Uoterman R. Faktor obnovleniya: kak soxranayut konkurentosposobnost luchshie kompanii. - M.: Progress, 1998.
4. Ustinov V.A. Upravlenie innovatsionnoy deyatel'nostyu v protsesse sozdaniya novoy texniki i texnologii. - M., 1995.
5. Yakovets Yu.V. Innovatsionnoe investirovanie: novie podxodi // Ekonomist. 1995., № 1.